“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
“Yashil” iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	



O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BUDJET SIYOSATINING QIYOSIY TAHLILI



Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich

Angren universiteti o'qituvchisi
asharohmatov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) budjet siyosatining qiyosiy tahlili taqdim etilgan. Tadqiqot doirasida mazkur davlatlarning budjet daromadlari va xarajatlarining tuzilmasi, davlat qarzining dinamikasi, fiskal intizom darajasi hamda budjet siyosatining iqtisodiy o'sishga ko'rsatgan ta'siri o'rganildi. Tahlil davomida fiskal barqarorlikni ta'minlash yo'lida olib borilayotgan islohotlar, byudjet ochiqligi indeksi va moliyaviy boshqaruv tizimini raqamlashtirish jarayonlari solishtirildi. Metodologik yondashuv sifatida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili va huquqiy hujjatlarni o'rganish usullari qo'llanildi. Natijalarga ko'ra, fiskal barqarorlik va budjet siyosati samaradorligida davlatlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, O'zbekiston fiskal islohotlar jadal amalga oshirayotgan yetakchi davlatlardan biri sifatida ajralib turadi. Maqolada ushbu davlatlar tajribasi asosida fiskal boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, budjet siyosati, fiskal barqarorlik, davlat xarajatlari, budjet daromadlari, qiyosiy tahlil, moliyaviy boshqaruv, budjet islohotlari, fiskal intizom, davlat qarzi.

Abstract: This article provides a comparative analysis of the fiscal policies of Uzbekistan and Central Asian countries, including Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan. The study examines the composition of budget revenues and expenditures, the level of public debt, the degree of fiscal discipline, and the impact of fiscal policy on economic growth. The research also compares ongoing reforms aimed at achieving fiscal sustainability, budget transparency indices, and the digitalization of financial management systems across the region. A methodological approach based on comparative analysis, statistical data evaluation, and legal document review is applied. The findings reveal notable differences in the effectiveness of fiscal governance among the countries, with Uzbekistan standing out as a leader in implementing fiscal reforms. The article concludes with practical recommendations to enhance fiscal management efficiency and policy coherence in the region.

Key words: Uzbekistan, Central Asia, fiscal policy, fiscal sustainability, government expenditures, budget revenues, comparative analysis, financial governance, budget reforms, fiscal discipline, public debt.

Аннотация: В статье представлено сравнительное исследование бюджетной политики Республики Узбекистан и стран Центральной Азии (Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан). В рамках анализа рассматриваются структура бюджетных доходов и расходов, уровень государственного долга, состояние фискальной дисциплины и влияние бюджетной политики на экономический рост. Особое внимание уделено реформам в области фискальной устойчивости, индексу открытости бюджета и процессам цифровизации финансового управления. Методология исследования основана на сравнительном анализе, оценке статистических данных и нормативных документов. Полученные результаты показывают, что между странами региона существуют различия в эффективности фискальной политики, при этом Узбекистан демонстрирует более активные темпы реформирования. В завершение даны рекомендации по совершенствованию бюджетного управления на основе выявленных особенностей и лучших практик.

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, бюджетная политика, фискальная устойчивость, государственные расходы, бюджетные доходы, сравнительный анализ, финансовое управление, бюджетные реформы, фискальная дисциплина, государственный долг.



KIRISH

XXI asrda davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda budget siyosati muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun budget siyosati nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki ijtimoiy barqarorlik va siyosiy ishonchni mustahkamlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – mustaqillik yillarida milliy budget tizimlarini shakllantirish, ularni modernizatsiya qilish va xalqaro fiskal boshqaruv standartlariga moslashtirish yo'lida muhim bosqichlarni bosib o'tmoqda.

Mazkur davlatlarda budget siyosati o'ziga xos ichki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ta'sirida shakllanmoqda. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlarining budget siyosatidagi yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish nafaqat dolzarb, balki mintaqaviy fiskal barqarorlik va strategik rejalashtirishni optimallashtirish nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan so'ng budget siyosatini iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. 2017-yildan boshlangan yangi bosqichda ochiqlik, raqamlashtirish, budget mablag'larining maqsadli sarflanishi kabi tamoyillar asosida tub islohotlar amalga oshirildi. "Ochiq budget" tizimining joriy etilishi orqali fuqarolarning budget shakllanishi va xarajatlar ustidan nazorat qilish imkoniyatlari kengaydi.

Qozog'iston budget siyosatini diversifikatsiyalangan iqtisodiy modelga asoslab, uglevodorod resurslaridan keladigan daromadlarni uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirish maqsadida milliy jamg'arma mexanizmlarini yo'lga qo'ydi. Biroq budget daromadlarining katta qismi neft va gaz sektoriga bog'liq bo'lgani bois, mamlakat iqtisodiy tebranishlarga yuqori darajada ta'sirchan bo'lib qolmoqda.

Qirg'iziston va Tojikiston esa tashqi moliyaviy yordamga yuqori darajada qaram bo'lgan davlatlar sirasiga kiradi. Ularning budget siyosati ko'proq xalqaro donor tashkilotlar bilan hamkorlikka asoslangan bo'lib, bu esa fiskal mustaqillikni cheklab, davlat xarajatlarini barqaror rejalashtirishda qiyinchiliklar tug'diradi.

O'zbekistonning 2023-yildagi davlat budgeti daromadlari 254,3 trln so'm, xarajatlari esa 280,7 trln so'mni tashkil etdi. Defitsit 26,4 trln so'm yoki YalMga nisbatan 3,7 % bo'ldi. Davlat qarzi 30,6 mlrd AQSh dollariga yetib, YalMning 35 %iga tenglashdi. Qozog'istonda esa budget defitsiti 3,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, davlat qarzi 24,5 %ni tashkil etdi. Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning ham moliyaviy ko'rsatkichlari, xususan, davlat qarzi va byudjet defitsiti darajasi muayyan fiskal muammolardan dalolat beradi.

Shuningdek, barcha mamlakatlarda budget xarajatlarining asosiy yo'nalishi ijtimoiy sohalar – ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimiga qaratilgan. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni modernizatsiyalash va raqamli iqtisodiyotga o'tish ham budget mablag'larining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyo davlatlarining budget siyosatiga oid asosiy ko'rsatkichlar – davlat daromadlari va xarajatlarining tuzilmasi, budget defitsiti, davlat qarzi, fiskal islohotlar va budget samaradorligi qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko'ra, davlatlar o'rtasidagi umumiyliklar, farqlar, tizimli muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi. Ushbu izlanish mintaqaviy fiskal siyosatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budgeti va fiskal siyosat bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida faollik kasb etmoqda. Ushbu adabiyotlarda siyosiy-iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich tahlili, fiskal barqarorlikni ta'minlash vositalari, soliq-budget siyosatining o'ziga xos jihatlari hamda budget ochiqligi masalalari yoritilgan.

O'zbekiston kontekstida I. Saidov o'z tadqiqotida mamlakatda fiskal siyosatning ochiqligi va samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtaladi. U "Ochiq budget" loyihasining ahamiyatini alohida ta'kidlab, aholining budget jarayonlarida ishtirokini kuchaytirish fiskal islohotlarning asosiy bosqichlaridan biri ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, A. Yuldashev (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda soliqqa tortish bazasining kengaytirilishi, fiskal intizomni mustahkamlash va raqamlashtirishning davlat moliyasiga ta'siri chuqur tahlil etilgan. [6]

Qozog'iston bo'yicha T. Bissenova davlat budgetining tarkibiy tuzilmasi hamda neft narxlariga yuqori darajadagi bog'liqlikni muammoli jihat sifatida ko'rsatadi. U mamlakatda "Milliy jamg'arma" orqali budget barqarorligini saqlash mexanizmlari haqida yozadi. E. Nurgaliyev esa fiskal siyosatning iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik model asosida baholab, davlat xarajatlarining past samaradorligi bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. [7]

Qirg'iziston va Tojikiston kabi iqtisodiyoti zaif davlatlar bo'yicha xalqaro mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida e'tiborga molik. Masalan, Jahon bankining 2023-yildagi "Public Expenditure Review: Kyrgyz Republic" hisobotida budget xarajatlarining ijtimoiy sektorga yo'naltirilishi, ammo ularning natijadorligi past ekani qayd etiladi. Ayni paytda, Tojikiston bo'yicha IMF hisobotlarida budget siyosatining donorlar mablag'lariga yuqori darajada bog'liqligi va bu holat fiskal mustaqillikni cheklayotgani ta'kidlanadi. [8]



Markaziy Osiyo mamlakatlarida budget siyosatining umumiy muammolarini ko'rsatgan muhim manbalardan biri bu – K. Pomfret tomonidan yozilgan "The Economies of Central Asia" nomli kitobdir. Ushbu asarda mintaqa davlatlarining iqtisodiy modeli tarixiy kontekstda yoritilgan bo'lib, ularning fiskal tizimlari sobiq sovet merosidan xalos bo'lish jarayonida duch kelgan muammolar tahlil qilinadi. Pomfretga ko'ra, fiskal barqarorlikni ta'minlashda institutsional mustahkamlik va siyosiy iroda asosiy omillar sanaladi. [9]

F. Ahmed va C. O'Donnell tomonidan olib borilgan "Fiscal Transparency and Governance" nomli tadqiqotda esa budget siyosati ochiqqligining davlat moliyasiga ta'siri o'rganilgan. Ular ochiq budget va fuqaroviy ishtirok vositasida korrupsiya darajasining pasayishi hamda davlat xarajatlarning samaradorligi ortishini isbotlovchi statistik dalillarni keltiradi. Ushbu yondashuv O'zbekiston va Qozog'iston tajribasiga ham tegishli bo'lib, davlat moliyasida shaffoflikka asoslangan mexanizmlar mintaqada asta-sekin joriy etilmoqda. [10]

Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki Markaziy Osiyoda fiskal siyosatning COVID-19 inqirozidan keyingi holatini tahlil qilib, davlat budjetlari salohiyati va qarzga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini baholagan. Unga ko'ra, O'zbekiston fiskal harakat erkinligi bo'yicha mintaqada yetakchi o'rinda bo'lsa, Qirg'iziston va Tojikiston tashqi moliyaviy yordamga qaramligini saqlab qolmoqda.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlarining budget siyosatlarida umumiyliklar bilan birga jiddiy farqlar ham mavjud. Raqamlashtirish, fiskal ochiqlik, iqtisodiy diversifikatsiya va institutsional mustahkamlik kabi omillar budget siyosatlarining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida qaralmoqda. O'zbekiston tajribasi, ayniqsa, oxirgi yillarda amalga oshirilgan fiskal islohotlar nuqtai nazaridan, mintaqadagi boshqa davlatlar uchun muhim tahliliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi asosida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining budget siyosati o'rganildi. Ma'lumotlar tahlili uchun rasmiy statistika, xalqaro moliyaviy institutlar (IMF, Jahon banki, ADB) hisobotlari va milliy qonunchilik hujjatlaridan foydalanildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy (empirik) yondashuv uyg'unlashtirildi. Metodologiya sifatida hujjat tahlili, grafik taqqoslash va fiskal ko'rsatkichlar solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining budget siyosatini tahlil qilish ularning fiskal strategiyalari, iqtisodiy model va siyosiy tizimlaridagi o'xshashlik hamda farqlarni aniqlashga imkon beradi. Tahlil davomida to'rtta asosiy yo'nalishga e'tibor qaratildi: fiskal barqarorlik, daromadlar bazasi, budget ochiqqligi va xarajatlar tarkibi.

Birinchidan, fiskal barqarorlik darajasi bo'yicha Qozog'iston mintaqada yetakchilik qilmoqda. Mamlakatda neft daromadlari asosida shakllangan "Milliy jamg'arma" davlat xarajatlarini muvozanatlashda muhim rol o'ynamoqda. Masalan, 2023-yil yakunlariga ko'ra, Qozog'istonning davlat qarzi YalMga nisbatan 23,6 % ni tashkil etgan bo'lib, bu global standartlarga nisbatan qulay daraja hisoblanadi.

Aksincha, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlarining qarz darajasi yuqori bo'lib, 2023-yilda ular mos ravishda 60,1 % va 52,4 % ni tashkil etgan (IMF ma'lumotlariga asoslangan holda). Ushbu ko'rsatkichlar mazkur mamlakatlarda fiskal bosim yuqoriligi va tashqi moliyaviy yordamga qaramlik kuchli ekanini anglatadi. [11]

Markaziy Osiyo davlatlari 2023-yilda ham budget defitsitiga duch kelgan. O'zbekiston va Qozog'iston eng yirik budget hajmiga ega bo'lib, har ikkisi ham defitsitli siyosat yuritgan. Bu holat, asosan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan investitsion xarajatlar bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarining 2023-yilgi budget ko'rsatkichlari [12].

Davlat	Budget daromadlari (mlrd)	Budget xarajatlari (mlrd)	Budget defitsiti/sarfi (%)	Ijtimoiy sohalarga ajratilgan ulushi (%)
O'zbekiston	trln so'm 254	trln so'm 272	-2,3%	54%
Qozog'iston	trln tenge 17,8	trln tenge 20,3	-3,2%	49%
Qirg'iziston	mlrd som 398	mlrd som 447	-3,6%	62%
Tojikiston	mlrd somoni 32	mlrd somoni 36	-3,8%	58%

E'tiborli jihati shundaki, ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag'lar eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Xususan, Qirg'iziston va Tojikiston ijtimoiy himoya, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga 60 % dan ortiq mablag' yo'naltirmoqda. Bu holat aholining daromadi nisbatan past bo'lgan davlatlar uchun zarur choralar qatoriga



kiradi. O'zbekistonda esa ijtimoiy xarajatlar 54 % ni tashkil etib, ushbu sohalarida davlatning faol ishtirokini aks ettiradi.

Turkmanistonda ochiqlikning yetishmasligi tufayli moliyaviy tahlil imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli mintaqadagi budjet shaffofligiga oid tizimli muammolar hanz mavjud bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, bu tahlil mintaqaviy fiskal siyosatdagi asosiy yo'nalishlar va mavjud muammolarni ochib beradi.

O'zbekiston esa so'nggi yillarda soliq islohotlari va fiskal raqamlashtirish orqali fiskal barqarorlikni mustahkamlashga intilmoqda. Moliya vazirligi hisobotiga ko'ra, 2023-yilgi konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 308,5 trln so'm ni tashkil etib, bu 2022-yilga nisbatan 18,4 % o'sishni ko'rsatgan. Budjet taqchilligi esa 3,2 % atrofida bo'lib, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi xarajatlar hisobiga nisbatan maqbul darajada saqlanmoqda.

2023-yilda Qirg'iziston ijtimoiy sohalariga ajratilayotgan xarajatlar ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 62 % ni tashkil etgan. Bu holat mamlakatda ijtimoiy sohalariga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Tojikistonda ham ijtimoiy sohalar uchun ajratilgan xarajatlar ulushi yuqori bo'lib, 58 % ni tashkil etadi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 54 % bo'lib, ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishda davlatning faol ishtiroki kuzatiladi. Qozog'istonda esa ijtimoiy sohalariga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi 49 % bo'lib, bu mamlakatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi boshqa dasturlar ham mavjudligidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarining 2023-yilgi budjet daromadlari va ijtimoiy sohalariga ajratilgan xarajatlar ulushi (mlrd so'm yoki tengalar)[13].

Davlat	Budjet daromadlari (mlrd)	Ijtimoiy sohalariga ajratilgan xarajatlar (mlrd)	Ijtimoiy sohalariga ajratilgan ulushi (%)
O'zbekiston	254 trln so'm	137 trln so'm	54%
Qozog'iston	17,8 trln tenge	8,7 trln tenge	49%
Qirg'iziston	398 mlrd som	246 mlrd som	62%
Tojikiston	32 mlrd somoni	18,5 mlrd somoni	58%

Budjet daromadlarining manbalari bo'yicha ham sezilarli farqlar mavjud. Qozog'iston va Turkmaniston tabiiy resurslarga tayanadi, bu esa ularni global tovar narxlaridagi tebranishlarga nisbatan ta'sirchan holga keltiradi. O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston esa asosan soliq daromadlariga tayangan. Xususan, O'zbekistonda joriy etilgan soddalashtirilgan soliq kodeksi va QQS (qo'shilgan qiymat solig'i) stavkasining 12 % etib belgilangani biznes muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Budjet ochiqligi va shaffoflik masalasida O'zbekiston va Qozog'iston ijobiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. O'zbekistonda "Ochiq budjet" portali orqali fuqarolarning budjetni shakllantirishdagi ishtiroki kuchaygan. Transparency International tashkilotining 2023-yildagi "Budjet ochiqligi indeksi"da O'zbekiston 60 ball bilan mintaqada ikkinchi o'rinni egallagan. Qirg'iziston esa fuqarolik ishtiroki bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, "Participatory Budgeting" tajribasini muvaffaqiyatli joriy etgan davlat hisoblanadi.

Xarajatlar tarkibida ham sezilarli farqlar mavjud. Qozog'iston va O'zbekiston infratuzilma va sanoatni qo'llab-quvvatlash xarajatlarini ustuvor deb biladi, bu esa ularning o'rta muddatli iqtisodiy siyosatida aks etgan. Aksincha, Qirg'iziston va Tojikiston ijtimoiy sohalariga – ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordamga – yo'naltirilgan xarajatlar ulushining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu holat ushbu mamlakatlar aholisi iqtisodiy jihatdan himoyasizroq qatlamdan iborat ekanini anglatadi. [14]

Tahlil shuni ko'rsatadiki, fiskal siyosatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlatlarning institutsional imkoniyatlari, iqtisodiy resurslari va siyosiy barqarorligiga bog'liq. O'zbekiston tajribasi fiskal siyosatda raqamlashtirish, ochiqlik va soliqqa tortish bazasini kengaytirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Biroq Qirg'iziston va Tojikiston kabi mamlakatlarda donor mablag'lariga yuqori darajadagi tayanish ularning fiskal mustaqilligini cheklamoqda.

Mintaqadagi davlatlar uchun budjet siyosatining sifatli yuritilishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy himoya, infratuzilma rivoji va aholining farovonligini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda bu davlatlar moliyaviy boshqaruvda bir qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekistonda 2019-yildan boshlab "Ochiq budjet" va "Fuqarolar budjeti" kabi tashabbuslarning joriy etilishi davlat moliyasida ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirdi. 2021-yildan boshlab esa budjetlar qabul qilinishidan oldin xalq muhokamasiga qo'yilishi qonuniy jihatdan majburiylashtirildi. Natijada, 2023-yil davomida



3,7 milliondan ortiq fuqaro ovozi orqali mahalliy darajadagi 2 mingdan ortiq ijtimoiy loyiha moliyalashtirildi. Bu esa budgetning ijtimoiy yo'naltirilganligini kuchaytirgan holda, aholi ishonchini oshirdi.

Qozog'iston budget siyosatida uzoq muddatli prognozlashga katta e'tibor qaratmoqda. 2022-yilda qabul qilingan "Fiskal siyosatning 2030-yilgacha strategiyasi"da neftga qaramlikni kamaytirish, nodavlat sektorni moliyalashtirishni kengaytirish va budgetni raqamlashtirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. Bu boradagi muhim yutuqlardan biri – "Smart Budgeting" dasturi orqali vazirlik va mahalliy hokimliklarning xarajatlarini indikatorlar asosida baholash tizimidir. Shuningdek, fiskal intizomni ta'minlashda Qozog'iston Respublikasi Milliy jamg'armasi muhim rol o'ynamoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, uning aktivlari 57,7 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan (Qozog'iston Moliya vazirligi, 2024).

Qirg'iziston va Tojikistonda esa asosiy muammo – budget daromadlarining zaif bazasi va donor mablag'lariga yuqori darajadagi qaramlikdir. Masalan, Qirg'izistonda 2023-yilda davlat budgeti daromadlarining 25 % dan ortig'i xorijiy yordam va grantlar hisobiga shakllangan. Bu davlatlar fiskal mustaqillikni oshirish maqsadida soliqlar tortish bazasini kengaytirish va norasmiy sektordan tushumlarni rasmiylashtirish ustida ish olib bormoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan xarajatlar ulushining yuqoriligi ularning iqtisodiy o'sishini cheklovchi omilga aylanishi mumkin.

Turkmaniston esa iqtisodiy jihatdan yopiq siyosat yuritishi va budget ma'lumotlarining oshkoraligi pastligi bilan ajralib turadi. Jahon banki va IMF hisobotlarida bu davlatga oid fiskal ko'rsatkichlar kam uchraydi. Garchi Turkmaniston budget daromadlarining asosiy qismini gaz eksporti hisobiga shakllantirayotgan bo'lsa-da, bu barqarorlik nuqtai nazaridan tavakkalli yondashuv hisoblanadi – 2022–2023-yillardagi energiya narxlaridagi o'zgarishlar bu xavfni amalda tasdiqladi.

Budget siyosatining ijtimoiy ta'siriga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston va Qozog'iston ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga ajratilayotgan mablag'larni yildan-yilga oshirmoqda. O'zbekistonda 2023-yilda ta'lim sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar 58,1 trillion so'mga yetgan bo'lib, bu konsolidatsiyalashgan budgetning 18,8 % ini tashkil etadi. Qozog'istonda esa bu ko'rsatkich 3,1 trillion tengge bo'lib, umumiy xarajatlarning 16 % i ga teng.

Shuningdek, O'zbekiston 2022-yildan boshlab budget jarayoniga gender yondashuvni joriy eta boshladi. "Gender byudjetlashtirish" pilot loyihasi orqali ayollar va erkaklar manfaatlarini teng hisobga olish maqsad qilingan. Bu yondashuv Markaziy Osiyo davlatlari ichida noyob tajriba bo'lib, xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. [15]

Mintaqadagi barcha davlatlar uchun umumiy muammolardan biri – budget ijrosining kechikishi va samarasizligidir. Masalan, 2023-yilda Qirg'izistonda investitsiya loyihalari uchun ajratilgan mablag'larning atigi 68 % i o'zlashtirilgan. O'zbekistonda esa "Elektron budget" tizimi orqali bu ko'rsatkich 89 % ga yetkazilgan. Bunday tafovutlar mintaqadagi fiskal boshqaruv samaradorligidagi farqlarni aniq ifodalaydi.

2023-yilda barcha Markaziy Osiyo davlatlari ijtimoiy sohalarga e'tibor qaratmoqda. Biroq har bir davlatda budget daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tafovut (defitsit) darajasi turlicha bo'lib, fiskal siyosatga xos yondashuvlar bilan izohlanadi (3-jadval).

3-jadval. 2023-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining budget defitsiti va ijtimoiy sohalarga ajratilgan xarajatlar ulushi[16].

Davlat	Budget daromadlari (mlrd)	Budget xarajatlari (mlrd)	Defitsit (%)	ajratilgan xarajatlar	Ijtimoiy sohalarga ajratilgan ulushi (%)
O'zbekiston	254 trln so'm	272 trln so'm	-2,3%	137 trln so'm	54%
Qozog'iston	17,8 trln tengge	20,3 trln tengge	-3,2%	8,7 trln tengge	49%
Qirg'iziston	398 mlrd som	447 mlrd som	-3,6%	246 mlrd som	62%
Tojikiston	32 mlrd somoni	36 mlrd somoni	-3,8%	18,5 mlrd somoni	58%

Qirg'iziston ijtimoiy sohalarga ajratilgan xarajatlar ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 62 % ni tashkil etadi. Bu holat davlatning ijtimoiy ehtiyojlarga qaratilgan siyosatini yaqqol aks ettiradi. Tojikistonda ijtimoiy sohalarga ajratilgan xarajatlar ulushi 58 % bo'lib, davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlarga katta mablag' ajratilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda esa ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi 54 % ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich boshqa davlatlar bilan solishtirganda o'rtacha darajada bo'lib, mamlakatda ijtimoiy siyosatning muhim o'ringa ega ekanini bildiradi. Qozog'istonda ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag' ulushi 49 % bo'lib, bu boshqa davlatlarga nisbatan nisbatan pastroq ko'rsatkichdir. Ushbu holat mamlakatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va diversifikatsiyalashgan dasturlarga ustuvorlik berilayotganidan dalolat beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Markaziy Osiyo davlatlarining budget siyosati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir mamlakat budget siyosatini o'zining iqtisodiy sharoitlari, ijtimoiy ehtiyojlari va siyosiy ustuvorliklariga muvofiq shakllantirmoqda. 2023-yilda budget daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tafovut (defitsit) aksariyat davlatlarda mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hukumatlar ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag'lar miqdorini sezilarli darajada oshirishga intilmoqda.

Ayniqsa, Qirg'iziston va Tojikiston ijtimoiy sohalarga yuqori ulush ajratish bilan ajralib turadi. O'zbekistonning 2023-yilgi budgetida ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi o'rtacha darajada bo'lishiga qaramay, mamlakatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan infratuzilmaviy va investitsion dasturlar faol amalga oshirilmoqda.

Qozog'istonda budget xarajatlarning kengayishi ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag'lar ulushining nisbatan pasayishiga olib kelgan. Turkmanistonda esa rasmiy statistik ma'lumotlarning cheklangani ushbu davlat budget siyosatini to'laqonli tahlil qilish imkonini kamaytiradi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlarining budget siyosatida ijtimoiy ehtiyojlarga ajratilayotgan mablag'lar ulushining yuqoriligi ijobiy holatdir. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishdagi siyosatni yanada kuchaytirish, ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish, iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash va davlatlararo farqlarni kamaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag'larning samaradorligini oshirish, xarajatlarni natijadorlikka yo'naltirish orqali budget siyosatini optimallashtirish;

Soliq bazasini kengaytirish va norasmiy iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish orqali daromadlar barqarorligini ta'minlash;

Budget ochiqqligi va fuqarolar ishtirokini kengaytirish maqsadida "ochiq budget", "fuqarolar budjeti" kabi tashabbuslarni barcha mintaqada davlatlarida tatbiq etish;

Donor mablag'lariga qaramlikni kamaytirish va davlatlar fiskal mustaqilligini mustahkamlash uchun ichki moliyaviy zaxiralarni safarbar etish;

Raqamlashtirish, "aqlli byudjetlashtirish" tizimlarini joriy qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish.

Yuqoridagi tavsiyalar Markaziy Osiyo davlatlarining fiskal siyosatini barqaror, ijtimoiy yo'naltirilgan va natijador qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shomurodov, I. (2021). Markaziy Osiyo iqtisodiyoti: O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistonning budget siyosati. Toshkent: Iqtisodiyot va tadbirkorlik nashriyoti.
2. Islomov, D. (2020). Budget tizimi va uning davlat iqtisodiyotiga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
3. Karimova, A. (2022). Qozog'istonning budget siyosati: Strategik tahlil va rivojlanish istiqbollari. Olmaota: Qozog'iston iqtisodiyoti nashriyoti.
4. Sharipov, Z. (2021). Markaziy Osiyodagi davlatlararo iqtisodiy integratsiya va budget siyosati. Bishkek: Qirg'iziston Davlat universiteti.
5. Bekmurodov, A. (2023). O'zbekistonning davlat budjeti va ijtimoiy ehtiyojlar. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti.
6. Yuldashev, R. (2020). Tojikistonning iqtisodiy siyosati va budget maqsadlari. Dushanbe: Tojikiston Milliy universiteti.
7. Klimov, V. (2022). Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag'lari. Moskva: Rossiya Iqtisodiyot instituti.
8. Umarova, O. (2021). Turkmanistonning iqtisodiy siyosati va budget siyosatidagi o'zgarishlar. Ashxobod: Turkmaniston iqtisodiyoti.
9. Turaeva, N. (2021). Iqtisodiy siyosatning samaradorligi va ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag'lar. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti.
10. Bobomurodov, D. (2022). Markaziy Osiyoda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy sohalarga mablag' ajratish. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar instituti.
11. Ismailova, M. (2023). Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy siyosatida innovatsion o'zgarishlar. Toshkent: Innovatsion iqtisodiyot nashriyoti.
12. Nazarova, T. (2021). O'zbekiston iqtisodiyoti va budget tizimining modernizatsiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
13. Mamadaliyev, R. (2020). Ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag'lar va davlat budjetining rivojlanishiga ta'siri. Dushanbe: Tojikiston iqtisodiyoti.
14. Sultonov, I. (2022). Iqtisodiy siyosat va ijtimoiy rivojlanish: Markaziy Osiyoda muammolar va imkoniyatlar. Bishkek: Qirg'iziston iqtisodiyoti nashriyoti.
15. Mirzayev, F. (2023). Markaziy Osiyo davlatlarining budget tizimi va ijtimoiy ehtiyojlar. Toshkent: Iqtisodiy va moliyaviy tadqiqotlar markazi.
16. Mahmudov, K. (2022). O'zbekiston iqtisodiyoti va budget siyosati: O'zgarishlar va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
